

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2021.FIL.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHODIYEVA SURAYYO SALOHIDDIN QIZI**

**O'ZBEK EPIK POEZIYASI TARAQQIYOTIDA**  
**SALOHIDDIN SALOHIIY DOSTONLARINING O'RNI**

**10.00.02 – O'zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Shodiyeva Surayyo Salohiddin qizi**

O'zbek epik poeziyasi taraqqiyotida Salohiddin Salohiy dostonlarining o'rni..... 5

**Shodieva Surayyo Salahiddin kizi**

The role of Salahiddin Salahiy's epic in the development of uzbek epic poetry..... 25

**Шодиева Сурайё Салоҳиддин кизи**

Роль эпоса Салоҳиддина Салоҳия в развитии узбекского эпоса поэзии..... 47

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

List of published works

Список опубликованных работ..... 49

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

---

**SHODIYEVA SURAYYO SALOHIDDIN QIZI**

**O'ZBEK EPIK POEZIYASI TARAQQIYOTIDA**  
**SALOHIDDIN SALOHIIY DOSTONLARINING O'RNI**

**10.00.02 – O'zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2735 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtomferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Qarshi davlat universiteti ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.qarshidu.uz](http://www.qarshidu.uz)) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalining ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manzillariga joylashirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shodmonov Nafas Namozovich  
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xolmuratov Abduhamid  
filologiya fanlari doktori, professor

Pardayev Qo'ldosh Uzaqovich  
filologiya fanlari doktori, professor


Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "17" avgust soat 12<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Qarshi-Shahrisabz shoh ko'chasi, A. Avloniy 15-uy. Tel.: (+998 75 221-21-04; faks: (+998 75) 220-02-10; e-mail: [kasu\\_info@edu.uz](mailto:kasu_info@edu.uz)). Qarshi davlat universiteti, Filologiya fakulteti faollar zali.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (187 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "14" avgust kuni tarqatildi  
(2025-yil "14" avgust da 6 raqamli reyestr bayonnomasi).

  
D. To'rayev  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori,  
professor

  
X.Q. Yo'ldasheva  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
filologiya fanlari doktori,  
dokent

G.X. Ernazarova  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligining bugungi bosqichida ulug' alloma va mutafakkirlarning ko'plab bebaho asarlarini, noyob yozma manbalarni o'rganish va kelajak avlodga yetkazish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Badiiy adabiyot materialining adabiy-estetik va ilmiy qiymatini haqqoniy o'rganish uchun birlamchi matnlarni chuqur o'rganish zarur. Ushbu asarlarning tahlili va talqini bilan bog'liq masalalar esa sohaning dolzarb muammolaridan biridir.

Dunyo adabiyotshunosligida XVIII asrga kelib, Turkiston xonligida yaratilgan asarlar, buyuk shoirlar asarlarining qiyosiy tahlili, matn germenevtikasi kabi ilmiy muammolar yuzasidan muhim ilmiy-nazariy tadqiqotlar amalga oshirildi. Shuningdek, jahonda xonliklar davri adabiyotiga qiziqish, targ'ib qilish, asar tarjimalarini amalga oshirish ishlari ham sezilarli o'sdi. Buning natijasida mazkur davr shoirlari ijodiga doir tadqiqotlarni adabiyotshunoslikning eng so'nggi yutuqlari asosida o'rganish zarurati kun tartibiga chiqdi. "Matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, tilshunoslik, falsafa hamda madaniyat tarixi sohalarida milliy madaniy merosimizning hali o'rganilmagan ko'pgina qatlamlarini ochib berishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilayotgan"<sup>1</sup> zarur bir paytda adabiyotimiz tarixida Buxoro adabiy muhitining tipik bir vakili hisoblangan Salohiddin Salohiy ijodi shu paytga qadar yetarlicha o'rganilmagan mavzulardandir. Shoir yaratgan g'oyaviy jihatdan yetuk, o'z ichida chuqur ma'nolarni va hayotiy tajribalarni aks ettirgan badiiy asarlar sharq mumtoz adabiyotining manbalarini yanada boyitishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham Salohiy qalamiga mansub dostonlarni tahlil qilib, keng ko'lamda monografik o'rganish va undan tegishli xulosalar chiqarish adabiyotshunoslikda hozirgacha hal etilmagan masalalarga oydinlik kiritish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'z navbatida adabiyotimizni kelajak avlodlarga yetkazishga juda katta yordam beradi.

Ta'kidlash joizki, o'zbek xalqining adabiy-tarixiy merosida mumtoz adabiy asarlar salmoqli o'rin egallaydi. Ana shunday asarlarni, merosimizni haqqoniy o'rganish, ularni ilmiy tahlil qilish bugungi kunimizning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Yangi O'zbekiston prezidenti Shavkat Miromonovich 2018-yilning 7-8-avgust kunlari O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti bilan hamkorlikda tashkil etilgan "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotni xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrik nutqida: "O'zbek mumtoz adabiyotida bugungi kunga qadar noma'lum bo'lib kelgan ijodkorlar hamda ularning asarlarini tadqiq etib, ularni keng jamoatchilikka va jahonga targ'ib qilish"<sup>2</sup> masalasini qo'ygan

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-son "Qadimiy e'timot manbalarini saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. / Xalq s'zisi, 2017 yil 25 may.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotni xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrik nutqi. (<http://uz.uz/uz/politics/o'zbek-mumtoz-va-zamonaviy-adabiyotini-xalqaro-miqyosda-org-07-08-2018>)

edilar. Ushbu ilmiy ish yuqoridagi fikrlarning amaliy natijasi sifatida ham dolzarblidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiqi va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi, 2018-yil 12-maydagi PQ-3721-son "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlari tashkil etish to'g'risida"gi, 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Sharq adabiyotshunosligida Salohiddin Salohiy hayoti va adabiy merosi turli nuqtayi nazardan o'rganilgan. Jumladan, Olim Sharafiddinov, V. Abdullayev, S. Erkinov, B. Valixo'jayev, P. Ravshanov, N. Muhammad, X. Rasulov hamda Sh. Rahmonova kabi adabiyotshunoslarning ilmiy maqola, risola, nomzodlik hamda doktorlik dissertatsiyalarini keltirish o'rinli<sup>3</sup>.

Ushbu tadqiqotlarda Salohiy hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar tezis tarzida bo'lib, mufassal ilmiy asoslash maqsadi qo'yilmagan. Ya'ni ularda shoir

<sup>3</sup> *Ўзбек адабиёти крестометияси (XV–XIX асрлар)*. – Тошкент: Фан, 1945. – Б. 124-129; *Ўзбек адабиёти*. 4 томлик. III том. – Тошкент: Ўзбекистон Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1959. – Б. 341-349; Абдуллаев В. *Ўзбек адабиёти тарихи (2-китоб)*. – Тошкент: Уқитувчи, 1964. – Б. 117-118; Эркинов С. Лутфий. – Тошкент: Фан, 1-ри ... дин-аси. – Самарканд: 1967. 1-кисм. – Б. 279-284; Валихўжасев Б. *Ўзбек элик поэзияси тарихидан*. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 57-68.; Валихўжасев Б. *Ўзбек адабиётшунослиги тарихи*. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – Б. 191; Рашидов П. Савоҳиддин Салохий / Қашиқларё хақиқати, 1982. 27 февраль, – Б. 8; Рашидов П. Қашиқларё тарихи. – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 768; Рашидов П. Қаши тарихи. – Тошкент: Янги аср алоди, 2006. – Б. 647; Муҳаммад Носир. Насаф ва Кеш алломалари (IX–XX асрлар). – Тошкент: Фафур Фузом номмадги нашриёт-мағба ижодий уйи, 2006. – Б. 85; Расулов Холид. *Ўзбек элик шеърятинда калитхонлик*. – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 148; Раҳмонова Ш. *Falsafiy-irfoniy dostonlarda vazn va mazmun inhosabati // O'zbekiston. Til va madaniyat*. 2022.2 (2): – В. 26-41.

adabiy merosining, xususan, dostonlarining mazmun-mundariyasi, badiiy qiymati tom ma'noda yoritilgan emas. Salohiy dostonlari hanuzgacha tabdil qilinib, nashr qilinmagan. Chop etilganlari ham ayrim parchalardangina iborat, xolos. Shuningdek, asarlarining poetikasi, ilmiy-badiiy qiymati to'laligicha yoritilmagan. Zero, Salohiy qalamiga mansub "Gul va Bulbul" hamda "Yusuf va Zulayxo" kabi mazmunan qimmatli dostonlarni monografik tarzda tahlil va talqin etish o'zbek adabiyotshunosligida samarali natijalardan biri bo'ladi.

Mazkur ilmiy ishimizda Salohiyning "Yusuf va Zulayxo" dostonini ham tahlil qilganmiz. Shu ma'noda yusufnomanavislik tadqiqi bilan bog'liq olimlarning ham ilmiy ishlarini keltirishni joiz topdik. Xususan, "Yusuf va Zulayxo" nomli asarlarni o'rgangan xorijlik olimlar: F. Vigouroux "Bibliyada Falastin, Misr va Ossuriyadagi kashfiyotlar"<sup>4</sup>, Y.A. Bogorodskiy "Ilohiy kitobdagi ulug'lardan Yusuf haqida"<sup>5</sup>, Y. Yaroslavskiy, F. Sulaymonova tadqiqotlarida ushbu turkum dostonlar genezisi Tavrotga bog'lanadi<sup>6</sup>. Y.E. Bertels tadqiqotlarida forsiy va turkiy tillardagi yusufnomalar, ulardagi obrazlar poetikasi masalalari o'rganilgan<sup>7</sup>. Ibn Sinoning "Yusuf qissasi" asari yuzasidan ham bir qator tadqiqotlar yaratilgan<sup>8</sup>. K. Quramboyev va B. Karriyev tadqiqotlarida ushbu mavzu o'zbek-turkman adabiy aloqalari kontekstida o'rganilib, Andalibning "Yusuf va Zulayxo" qissasi o'zbek adabiyotidagi yusufnomalar bilan qiyosiy tahlil etilgan<sup>9</sup>. O'zbek adabiyotshunosligida Hamidulla Karomatovning doktorlik dissertatsiyasida yusufnomalarning adabiy-estetik asosi Qur'oni karimga bog'langan<sup>10</sup>. Q. Tohirovning "Turkman shoiri Andalib va o'zbek adabiyoti: lirikasi va "Yusuf va Zulayxo" dostoni"<sup>11</sup>, Hilola Safarovaning "Rabg'uziyning "Qissayi Yusuf Siddiq alayhis-salom" asari manbalari va g'oyaviy-badiiy tadqiqi"<sup>12</sup>ga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyalarida ushbu turkumga kiruvchi alohida dostonlar tadqiq etilgani xarakterlidir. Abdurahmon Jomiy "Yusuf va Zulayxo" dostonining Muhammad

<sup>4</sup> Vigouroux F. "La Bible et les découvertes modernes en Palestine, en Egypte et en Assyrie", tome II. - Paris: Berche et Tralin, 1877 (2-e izdaniye: 1879). - P. 600.

<sup>5</sup> Богородский Я.А. Об Иосифе, библейском патриархе. - Казань, 1891. - С. 65.

<sup>6</sup> Ярославский Е. Библия для верующих и неверующих. - Москва, ГИПЛ, 1962. - С. 396; «Библия или книга священного писания Ветхого и Нового завета». - Москва: Синодальная типография, 1986. - С. 45-69; Сулаймонова Ф. "Юсуф ва Зулайхо" дostonining Алишер Навоийга nisbat berilgan Parij kuldemasida haqida // Adabiy meros, 1973. - №3. - B. 152.

<sup>7</sup> Bertels E.Э. АбулКасим Фирдоуси и его творчество. - Москва, 1935. - С. 61; Bertels E.Э. Избранный труды, I. История персидско-таджикской литературы. - Москва: Наука, 1960. - С. 232; Навои и Джами. - Москва: Наука, 1965 - С. 262; Ўзбекский поэт Дурбек и его поэма о Иосифе Прекрасном // Дар Альманах. - Ташкент, 1944. - С. 174.

<sup>8</sup> Ирисов Абдусодик. Ибн Синонинг "Юсуф киссаси" // Ўзбек тили ва адабиёти: - Тошкент: Фан, 1967. - №6. - Б. 46-47.; Ирисов Абдусодик, Ибн Синонинг "Юсуф киссаси" // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент: Фан, 1971. - №2; С. Мирзаев. Ибн Синонинг Шаркшунослик институтида мавжуд asarlari (bibliografiyasi). - Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1955. - Б. 19-20.

<sup>9</sup> Каримбой Курамбоев. Андалиб ва Фуркат. // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент: Фан, 1971. - №2. - Б. 25. Б.А.Каррисев. Навоий ва туркман адабиёти. // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент: Фан, 1974. - №2. - Б. 42.

<sup>10</sup> Кароматов Х. Ўзбек адабиётида Куръон мавзулари (адабий-тарихий тахлил). Фил. фан. д-ри... дис-яси автореферати. - Тошкент, 1993. - Б. 142.

<sup>11</sup> Тохилов К. Туркман шоири Андалиб ва ўзбек адабиёти: лирикаси ва "Юсуф ва Зулайхо" dostoni // Фил. фан. канд. дисс. - Самарканд, 1964. - Б. 174.

<sup>12</sup> Сафарова Х.А. Рабгузийнинг "Қиссаи Юсуф Сиддик алайхис-салом" asari manbalari va g'oyaviy-badiiy tadqiqi. Филология факультети номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. - Самарканд, 2001. - Б. 153.

Rizo Ogahiy tomonidan amalga oshirilgan o'zbekcha tarjimai Najmiddin Komilov<sup>13</sup> va Nurboy Jabborov<sup>14</sup> tomonidan o'rganilgan. Ushbu manba professor Nurboy Jabborov tomonidan 2018-yili qo'lyozma manbalar asosida to'liq nashr etildi<sup>15</sup>. Adabiyotshunos Ismat Sanayevning shu mavzudagi nomzodlik dissertatsiyasi asosida nashr etilgan "XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Zarafshon vodiysi adabiy muhiti" monografiyasida Mirzo Olim Devonaning "qissalarning eng go'zali" badiiy talqiniga doir "Ravzayi asror"<sup>16</sup> asari tadqiq qilingan. Tadqiqotchi Jumayeva Dilnoza tomonidan yozilgan "Yusuf va Zulayxo" turkumidagi dostonlarning qiyosiy-matniy tadqiqi<sup>17</sup> nomli ilmiy ishida yusufnomalar yaxlit tizimni tashkil etuvchi badiiy turkum sifatida birlamchi manbalar asosida tadqiq etilib, ular genezisiga konseptual yondashilib, qiyosiy-matniy tadqiqi amalga oshirilgan.

Yuqorida nomi keltirilgan tadqiqot ishlarining birortasida Salohiy tomonidan yozilgan "Yusuf va Zulayxo" dostoni ilmiy asosda o'rganilmagan. Ayrimlaridagina Salohiyning ham shu nomdagi dostoni borligi qayd etib o'tilgan, xolos. Eng asosiysi, shu paytgacha Salohiddin Salohiy ijodi o'zbek adabiyoti aspektida tadqiq qilinmagan. Ushbu tadqiqot Salohiy ijodini mufassal o'rganish, ayniqsa, shoir dostonlarining o'zbek epik poeziyasi taraqqiyotida tutgan o'rnini birlamchi manbalar asosida tadqiq etib, ulardan yakuniy xulosalar chiqarilganligi bilan avvalgi ilmiy ishlardan ajralib turadi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari" (2020–2023 yy.) mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Salohiddin Salohiyning tarjimai holiga aniqlik kiritish, asarlarining nusxalari haqida ma'lumot berish, shoir dostonlarining o'zbek epik poeziya taraqqiyotiga qo'shgan hissasini aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Salohiddin Salohiy hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarni aniqlash;

Salohiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixini yoritib, munozarali fikrlarga

munosabat bildirish;

shoir ijodini bosqichma-bosqich o'rganish orqali ijodkor dostonlarining nusxalarini topish;

Salohiy ijodida doston janrining o'ziga xos jihatlarini tadqiq qilish;

"Gul va Bulbul" dostonining mavzu doirasi, kompozitsiyasi hamda g'oyaviy yo'nalishini tahlil qilib, obrazlar tizimi, vazn va qofiya xususiyatlarini o'rganish;

<sup>13</sup> Комилов Н. Бу қадимий санъат. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1968. – Б. 192.

<sup>14</sup> Жабборов Н. Жомийнинг "Юсуф ва Зулайхо" асари туркий таржимасига оид мулоҳазалар. Абдурахмон Жомий. – Тошкент: Қўлёзмалар институти, 1997. – Б. 172-175.

<sup>15</sup> Абдурахмон Жомий. Юсуф ва Зулайхо. // Муҳаббат маҳзани. (Нашрга тайёрловчи: Нурбой Жаббор. – Тошкент: Тасвир, 2018. – Б. 307-612.

<sup>16</sup> Санъев И. XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX асрнинг бoshларида Зарафшон vodiysi адабий муҳити. – Тошкент: Тафаккур, 2009. – Б. 156.

<sup>17</sup> Жумасева Д. "Юсуф ва Зулайхо" туркумидаги дostonларнинг қиёсий-матний тадқиқи. Филол.фан.номз. дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 159.

shoirning "Yusuf va Zulayxo" dostoni epik poeziyaning noyob namunalariidan biri ekanligini ilmiy asoslash;

Salohiyning "Yusuf va Zulayxo" dostoni obrazlarini tadqiq qilish; "Gul va Bulbul" hamda "Yusuf va Zulayxo" dostonlaridagi ramzlar tizimining irfoniy-tasavvufiy ma'no qatlamini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Salohiddin Salohiyning "Gul va Bulbul" hamda "Yusuf va Zulayxo" dostonlari va shoirning tarjimai holi aks ettirilgan tazkira va tadqiqotlar tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** shoirning "Gul va Bulbul" hamda "Yusuf va Zulayxo" dostonlarini tahlil va talqin etishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tarixiylik, obyektivlik va ilmiylik tamoyillariga asoslanib, turli yondashuvlar va metodlar, jumladan, kuzatish, taqqoslash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, biografik, statistik, kontekstual va kompleks tahlil usullari ishlatildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Salohiddin Salohiy biografiyasi qo'lyozma manbalar asosida tekshirilib, uning XVIII asrda Buxoroda yashab ijod qilgani hamda hozirga qadar ayni taxallusli boshqa ijodkorning dostoni sifatida talqin etib kelinayotgan O'zRFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining asosiy fondidagi 3402-II raqamli qo'lyozma aynan Salohiddin Salohiyga tegishli ekani aniqlandi;

Salohiyga tegishli "Gul va Bulbul" dostonining O'zRFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida ikkita qo'lyozma, o'n beshta toshbosma, SamDU Abdurahmon Jomiy nomidagi ilmiy kutubxonasida uchta, Alisher Navoiy nomidagi Davlat muzeyida hamda Buxoro davlat muzey qo'riqxonasida ikkita toshbosma nusxalari, "Yusuf va Zulayxo"ning esa Sharqshunoslik institutining asosiy fondida bitta, Tojikiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik bo'limining qo'lyozmalar fondida ikkita qo'lyozma nusxalari saqlanishi aniqlandi va ularning ilmiy-monografik tavsifi aniq ma'lumotlar asosida dalillandi;

"Gul va Bulbul" dostonining kompozitsiyasi va g'oyaviy mazmuni tahlil qilinib, asarning adabiyotshunos B.Valixojayev hamda X.Rasulovlar tomonidan "Bulbul va Gul" deb nomlangani asossiz ekani isbotlandi, shuningdek, dostonda muallif badiiy niyatini aks ettiruvchi 12 ta asosiy va epizodik obraz mavjudligi aniqlandi, asarning vazn, qofiya hamda badiiy san'atlar poetikasiga doir jihatlarini ochib berildi;

"Yusuf" qissasi bilan bog'liq asarlar genezisi, poetikasi tekshirilib, Salohiyning "Yusuf va Zulayxo" dostoni shu nomdagi 150 dan ortiq asarlar ichida adabiy-irfoniy va badiiy jihatdan aynan Jomiyning "Yusuf va Zulayxo"si ta'sirida yaratilgani isbotlandi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Salohiddin Salohiy ijodining shakllanish jarayonlari, o'rganilish tarixi va XVIII asr o'zbek adabiyotida tutgan o'rni bo'yicha ma'lumotlar aniqlashtirilgan; O'zRFA Sharqshunoslik institutining asosiy fondida saqlanayotgan 9691 raqamli inventariga kiritilgan "Yusuf va Zulayxo" nomli dostoni hamda ushbu

fondaing bir qancha inventarlarida saqlanayotgan "Gul va Bulbul" dostoni tabdil qilinib, ularning badiiyati yoritib berilgan;

Salohiyning dostonlari yangicha yondashuvlarga asosan o'rganilishi, o'zbek adabiyoti tadqiqotlari uchun muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qilishi asoslab berilgan;

"Gul va Bulbul" dostonining g'oyaviy mazmuni va kompozitsion tuzilishi o'rganilgan;

shoir dostonlarining o'zbek mumtoz adabiyoti an'alariga bo'lgan munosabati keng yoritilib, salafar ijodidan ta'sirlanish qirralari ochib berilgan;

shoir dostonlaridagi ma'naviy-ma'rifiy-irfoniy g'oyaning badiiy qimmatini, umumbashariy g'oyalarning tadqiqi jamiyatda komil insonlarni tarbiyalashda muhim o'rin tutishi o'z isbotini topgan;

asarlarda ishtirok etgan timsollarni tadqiq etish orqali shoirning o'z zamonasi va muammolariga bo'lgan munosabati ochib berilgan;

Salohiy ijodida tasavvuf ta'limotining tutgan o'rni ham ilmiy jihatdan yoritilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** muammoning aniq qo'yilganligi, mavzu yuzasidan chiqarilgan xulosalarning ilmiy-tahliliy va qiyosiy-tipologik metodlar bilan asoslangani, muammoning aniq qo'yilgani, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, ishonchli nazariy manbalar hamda lug'atlardan foydalanilganligi bilan hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Mazkur dissertatsiya natijalari Salohiddin Salohiyning badiiy mahoratini tasavvur qilishga yordam berishi, shoir ijodi to'g'risida sharq adabiyotshunosligida mavjud ba'zi qarashlarga aniqlik kiritishi hamda shoir dostonlarining to'liq tahliliga oid umumlashma xulosalarni berishi shubhasiz.

Dissertatsiya natijalari va ilmiy xulosalaridan o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi hamda matnshunoslik va adabiy manbashunoslik fanlaridan darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishda, oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida o'zbek adabiyoti tarixi bo'yicha o'tkaziladigan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda, badiiy adabiyot ta'limi mazmunini yanada teranlashtirishda, maxsus kurslar o'qitishda, g'oyaviy-axloqiy, mafkuraviy tashviqot va targ'ibot ishlarida, fors-tojik va o'zbek adabiy aloqalarini o'rganishda foydalanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, u talabalar hamda ilmiy tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar uchun foydali manba bo'lishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** "O'zbek epik poeziyasi taraqqiyotida Salohiddin Salohiy dostonlarining o'rni" mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi ishlarda joriylangan:

XVIII asr Buxoro adabiy muhitida yashab ijod etgan mashhur shoirlar, ushbu adabiy muhitda barakali ijod qilgan Salohiddin Salohiy qalamiga mansub "Gul va Bulbul" asarining tabdilini nashr ettirdik.

1. Shodiyeva Surayyo. Qashqadaryo vohasi adabiy manbalari. – Qarshi: Nasaf, 2020 (ISBN 978-9943-18-263-9)

2. Salohiddin Salohiy. Gul va Bulbul. (Tabdil va lug'at tuzuvchi: S. Shodiyeva) – Toshkent: Firdavs-shoh. 2023 (ISBN 978-9910-9713-4-1).

Natijada ilm ahli XVIII-XIX asr Buxoro adabiy muhiti namoyondalari haqida umumiy ma'lumot oladilar hamda Salohiyning "Gul va Bulbul" dostoni tabdili asosida ushbu asarning to'la matni bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Salohiyning "Gul va Bulbul" hamda "Yusuf va Zulayxo" dostonlarining badiiy qimmatini, umuminsoniy g'oyalarning tadqiqi jamiyatda komil insonni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatib berishda, ularning shoir ijodida tutgan badiiy-estetik mavqeyini aniqlash kabi tadqiqot natijalaridan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Badiiy kengashlari hisobot yig'ilishlarida, to'garaklar faoliyatida, mahorat darslarida, yosh ijodkorlar bilan kitobxonlik uchrashuvlarida foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2023-yil 2-martdagi 01-03/327-son ma'lumotnomasi). Natijada adabiyotimiz tarixiga oid adabiy manbalar yangicha ilmiy talqinlarda to'garak a'zolariga taqdim etilgan.

Masal-poema janri tarixi, uning o'ziga xos xususiyatlari, mazkur janrda yaratilgan asarlar poetikasi va ularning ijodkorlari haqidagi ma'lumotlar asosida ilmiy-nazariy xulosalardan "Mahalla" teleradiokanalining "Mahalla" radiosi orqali "Adabiyot gulshani" radioeshittirishlarni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, "Mahalla" teleradiokanali davlat muassasasining 2023-yil 1-oktabrdagi ma'lumotnomasi). Natijada keng xalq ommasining kitobxonlikka qiziqishini oshirishga, ularning o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi, xususan, masal-poema janrida yaratilgan mashhur dostonlar to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlar bilan tanishishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda qilingan ma'ruzalarda aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 157 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obyekti aniqlangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati

ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqotning tuzilishi va hajmi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "Salohiddin Salohiy va uning adabiy merosi"ga bag'ishlanadi. Bob ikki paragrafdan iborat bo'lib, birinchi paragraf "Salohiddin Salohiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi" deb nomlangan. Unda mazkur taxallus bilan ijod qilgan bir qancha ijodkorlar shaxsiyati, ijodining o'xshash va farqli xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Ushbu ma'lumotlar keltirilishining asosiy sababi esa adabiyotimiz tarixida hozirga qadar Salohiddin Salohiyning qo'lyozma asarini boshqa bir Salohiyning dostoni sifatida talqin etilganligidadir. Mazkur paragrafimizda bunga dalil sifatidagi aniq ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, yuqoridagi kabi holatlarni akademik B. Valixo'jayevning tadqiqotlarida uchratamiz. Olim "O'zbek epik poeziyasi tarixidan" nomli kitobida Salohiddin Salohiy to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tadi: "XVII asrda Qoshg'arda ham Salohiy taxallusli shoir yashab, "Gul-u Bulbul" poemasini yozgan kitobning kirish qismida qayd etilishicha, G'urbatiy "Gul-u Bulbul kitobi"ni ijod qilganki, Salohiy ana shu asar ruhida o'z poemasini yaratgan"<sup>18</sup>. Biroq boshqa manbalarning barchasida Salohiddin Salohiyning XVIII asrda yashaganligi qayd etiladi.

Bizningcha, akademik B. Valixo'jayev tomonidan yuqoridagi ma'lumotning keltirilish sababi "Gul va Bulbul" asarida ifodalangan ta'rix moddasining xatolik bilan hisoblanishi natijasidir. Ushbu bayt quyidagicha:

*Bo'lubon Mustafog'a hijriyotdin,  
Oling ta'rix dardi ishqiyotdin*<sup>19</sup>.

Mazkur baytdagi "dardi ishqiyot" (درد عشقیات) birikmasidan asar yozilgan yil abjad hisobida hijriy 1089-yil (mil.1678) kelib chiqadi. Asarning qo'lyozma titulida ham Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi Usmon Karimov tomonidan (qo'shimcha ma'lumot sifatida) 1975-yilning 3-martida uning yozilgan ta'rix yuqoridagi kabi keltirilgan. Biroq ushbu manbaning qo'lyozma va toshbosma nusxalarini qiyosiy o'rganganimizda ularning mazmuni bir xil ekanini aniqladik. Asarda keltirilgan ta'rix qayta o'rganilganda ta'rix moddasi "dardi ishqiyot" emas, "dardi ishqiyotdin" (درد عشقیاتدین) ekani aniqlandi. Jumal adadi esa 1153 ni tashkil etadi. Demak, asarning yaratilgan yili hijriy – 1153, milodiy hisobda esa 1740-yil ekani oydinlashadi. Bu aynan tadqiqotimiz obyektini Salohiddin Salohiyning "Gul va Bulbul" asari hisoblanadi.

Salohiyning vatani Koshg'ar deyilishiga sabab esa quyidagi baytda ishora qilingan so'z:

*Bo'lub fayzi bahor Koshg'ardin,  
Topib ta'bim safo bu so'zlardin*<sup>20</sup>.

Bizningcha, mazkur o'rinda keltirilgan Koshg'ar so'zi tug'ilgan joyga nisbatan emas, balki shoir ushbu kitobini, unda ilgari surilgan g'oyalarini,

<sup>18</sup> Валхо'жаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 63.

<sup>19</sup> Salohiy. Gul va Bulbul. O'zRFA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondi. Inv.3402-II. – B. 15 (b-varaq).

<sup>20</sup> O'sha sahifa.

Koshg'ar bahorining fayzidek insonlarga manfaatli bo'lishini, ularning ongi va qalbini ochishini nazarda tutib aytgan.

Shuningdek, tadqiqotda Salohiddin Salohiyning tug'ilgan joyi haqidagi munozarali fikrlarga ham o'rinli javob berilgan. Bir qator olimlar, xususan, V. Abdullayev, P. Ravshanov, N. Muhammad hamda H. Boltaboyevlar Salohiddin Salohiyning XVIII asr Qarshi shahrida tug'ilganligini qayd etib o'tganlar. Boshqa olimlar esa Salohiyning vatani Buxoro ekanligi haqida ma'lumot keltirib, "Buxoriy" deb atashgan. Jumladan, akademik B. Valixojayev shoirning to'liq nomini "Salohiddin ibni shayxulislomi Buxoriy"<sup>21</sup> tarzida qayd etadi.

Tazkiranavis Nosir Muhammadning asarida keltirilishicha, Salohiy haqidagi ilk manba Nurmuhammad Nasafiyning "Mazharu-l-musannifin" tazkirasidir. Ammo boshqa manbalarda buning aksi keltirilgan. Ushbu fikrimizni "O'zbek adabiyoti tarixi"da keltirilgan quyidagi mulohazalar orqali dalillasak bo'ladi: "Muhammad Amin bin Nurmuhammad Nasafiy, balki, Mutribiy va Maleho singari shaharma-shahar kezolmagan, zamondoshlari bilan tanish bo'lmagandir. Yo'qsa tazkira 1758-1759-yillarda yoziladi-yu, nega unda tazkiradan 18 yil ilgari - 1740-yilda o'zbek tilida yozilgan Salohiddin Salohiyning "Gul va bulbul" dostoni haqida ham so'z yuritilmay yoki shu muallif tomonidan 1753-yilda, tazkiradan 5-6 yil ilgari tojik tilida yozilgan "Yusuf va Zulayho" dostoni haqida hech narsa deyilmaydi"<sup>22</sup>.

Yuqoridagi ma'lumotlar, izohlar hamda ijodkorning o'z asariga tayangan holda, xususan, shoirning "Yusuf va Zulayxo" nomli dostoniga murojaat qilganimizda, unda Buxoro ta'rifi, o'sha davr hukmdori Muhammad Rahimxonga bag'ishlangan bobning mavjudligini inobatga olib, Salohiyning tug'ilgan joyi Buxoro degan xulosaga keldik.

Xullas, turli davr va makonlarda ijod qilgan "Salohiy" taxallusli bir nechta ijodkor mavjud bo'lib, ular adabiyotimiz tarixida o'zlarining sara asarlari bilan o'z o'rinlariga ega bo'lishgan. Salohiddin Salohiy hayoti va ijodining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida O. Sharafiddinov, V. Abdullayev, S. Erkinov, B. Valixojayev, P. Ravshanov, N. Muhammad, X. Rasul, Sh. Rahmonova kabi adabiyotshunoslar o'z asarlarida alohida fikr bildirganliklari shoirning adabiyotimiz tarixida o'z o'rniga ega ijodkor ekanligidan dalolat beradi.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi "Shoir dostonlari manbalarining ilmiy xarakteristikasi" deb nomlanadi va unda Salohiyning barcha qo'lyozma va toshbosma manba nusxalarini ilmiy-monografik tavsifladik. Matn tarixini o'rganishga zamin tayyorlash uchun, birinchi navbatda, qo'lyozmaning ilmiy-monografik tavsifini amalga oshirish talab etiladi. Shunga ko'ra, tadqiqotimizda Salohiyning "Gul va Bulbul" hamda "Yusuf va Zulayxo" dostonlari nusxalarini ilmiy tavsiflashga harakat qildik.

Respublikamizning turli fondlarida Salohiy qalamiga mansub "Gul va Bulbul" dostonining ikkita qo'lyozma hamda bir nechta toshbosma nusxalari

<sup>21</sup> Valixojayev B. *Ўзбек эпик поэзияси тарихидан*. - Тошкент: Фан, 1974. - Б. 135.  
<sup>22</sup> *Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. Учинчи том*. - Тошкент: Фан, 1978. - Б. 150.

saqlanadi. Xususan, O'zRFA Sharqshunoslik institutining asosiy fondida 3402-II, 5354 raqamli qo'lyozmalar hamda 343, 576, 577, 578, 4002, 4248, 4249, 4250, 9593, 9594, 9595, 11021, 13857, 13858, 13859 raqamlari ostida toshbosma nusxalar saqlanmoqda.

Shuningdek, dostonning yana ikkita – 420, 1295 raqamli toshbosma nusxalari Alisher Navoiy nomidagi Davlat muzeyida hamda SamDU Abdurahmon Jomiy nomidagi ilmiy kutubxonasining nodir kitoblar bo'limida 392093, 823860, 824415 raqamli toshbosmalari, Buxoro davlat muzey qo'riqxonasida esa 580 va 35458 raqamlari ostida saqlanmoqda.

Bundan tashqari, adabiyotshunos Xolid Rasulning "O'zbek epik she'riyatida xalqchilik"<sup>23</sup> kitobida Rossiya Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti Leningrad bo'limida A 836-sonli qo'lyozma kitobda ham "Gul va Bulbul" dostoni saqlanishi haqidagi ma'lumot keltirilgan.

Tadqiqotimizda mazkur manbalarning batafsil ilmiy tavsifi keltirilgan. (Quyida faqat uchta manba (ikkita qo'lyozma va bitta toshbosma) haqida izoh berdik, sababi ulardan ilmiy ishimizda batafsil foydalanganmiz)

**3402 raqamli qo'lyozma nusxa.** 3402-II dostonning to'la ko'chirilgan nusxasi hisoblanib, jami 80 (10-89 betlar) varaqdan iborat. Kitob qizil, qalin muqovali, chetlari sariq, qo'qon qog'ozida. Ushbu manba yaxshi saqlangan, ammo ba'zi joylari yirtilgan. U nasta'liq xatida turkiy tilda bitilgan bo'lib, ko'chiruvchisi va yili ma'lum emas.

**577 raqamli toshbosma nusxa.** Ushbu manba 3402 raqamli qo'lyozmaning mukammal toshbosma nusxasi hisoblanadi. Bu kitob "Gul va Bulbul bo tasviri" deb nomlangan bo'lib, uning pastki qismida kitob qayerda va kim tomonidan chop etilgani quyidagicha keltirilgan: "Bo ihtimomi Mulla Zafarbek Muhammad o'g'illar xarajoti ila Toshkent shahrida G'ulomiya matbaasida tab' qilindi".

Sahifalarda yigirma baytlik matn ikki ustunda chiroyli va ixcham qilib joylashtirilgan. Sarlavhalar o'rtada alohida nasriy yo'lda yozilgan. Doston matni 2-sahifadan boshlanib, 48-sahifada kolofon bilan yakunlangan. Matn nihoyatda sifatli darajada qunt bilan ko'chirilgan. Ko'chirishda xatolarga yo'l qo'yilmagan, hoshiyalarda tuzatishlar ko'zga tashlanmaydi. Asar voqealariga mos holatda rasmlar ham ishlangan bo'lib, hajmi 48 varaqdan iborat. Ushbu nusxa qolgan nusxalarga qaraganda kam hajmligining sababi matnlar siqiq hamda kichik o'lchamda yozilganligidadir. Qattiq karton bilan muqovalangan bo'lib, o'lchami: 24x15.

Manbada asarning yozilgan yili haqida quyidagicha ma'lumot keltirilgan:

*Bu kitob ta'rix qo'yningg'a san quch,*

*Bo'lubon bir ming-u yuz ellik uch.*

Mazkur baytdan bilinib turibdiki, asar hijriy – 1153, milodiy yilda esa 1740-yilda yozilgan. Asar ko'chirilgan yil esa kitobning eng oxirgi sahifasining pastki qismida, uchburchak shakldagi chizmaning ichida, keltirilgan: "Tammat-ul-kitobi bia'vn-il Malik-il-Vahhabi. Tammat". تمت الكتاب بعون الملك الوهاب. ۱۲۶۴

<sup>23</sup> Rasulov Xolid. *O'zbek epik she'riyatida xalqchilik*. – Toshkent: Fan, 1973. – B. 12.

Salohiyning "Yusuf va Zulayho" asarining uchta qo'lyozma nusxasi mavjud. Ulardan bittasi O'zRFA Sharqshunoslik institutining asosiy fondida, ikki nusxasi esa TojRFA Sharqshunoslik bo'limining qo'lyozmalar fondida saqlanadi.

**9691-I raqamli qo'lyozma nusxa.** Ushbu nusxa O'zRFA Sharqshunoslik institutining asosiy fondida saqlanayotgan mukammal qo'lyozma bo'lib, unda asar to'liq ifodalangan. Dostonning yozilgan yili haqida qo'lyozmaning so'nggi sahifasida quyidagi bayt keltirilgan:

*Guzashta bud dar tarixi in hol,*

*Hazor-u yak sad-u ham shast-u shash sol<sup>24</sup>.*

Mazmuni: Bu kitobning tarixi 1166-yildan kelib chiqadi.

Mazkur bayt mazmuniga ko'ra doston hijriy 1166 (mil.1753) yozilganligi ayon bo'lmoqda.

Mazkur qo'lyozmaning ko'chirilgan sanasi va joyi haqida asarning kolofonida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Allohim, buni aytganni va buni yozganni fazling va karaming ila unga nazar solganni mag'firat ayla, Ey saxovatli va rahmlilarning eng rahmlisi. Bu nusxa Mehtari Anbar guzarida kamtarin kotibning qo'li bilan basharning eng yaxshi hijratining 1355-yilida tamomlandi. Alloh to'g'risini bilguvchidir. Tugadi, tugadi, tugadi"<sup>25</sup>.

Respublikamizning kutubxona fondlarida "Gul va Bulbul" dostonining yigirmaga yaqin nusxalari saqlanmoqda. Ular XX asrda Buxoro hamda Toshkent matbaaxonalarida chop etilgan. Mazkur nusxalar turli yillarda ko'chirilgan va chop etilgan. Shu sababli ularning matnlari o'rtasida ayrim tafovutlar ham yo'q emas. Umuman olganda, nusxalar orasida asar sujetining keskin o'zgarishi bilan bog'liq farqlar kuzatilmaydi.

Ikkinchi bobda "Salohiyning "Gul va Bulbul" dostoni poetikasi" tadqiq qilingan. Bobning dastlabki paragrafi "Gul va Bulbul" dostonining kompozitsiyasi va g'oyaviy mazmuni" deb nomlangan. Unda ushbu dostonning nomlanishi bilan bog'liq munozarali fikrlarga ilmiy izoh berilgan. "Gul va Bulbul" dostoni bir qancha olimlar tomonidan turlicha nomlar bilan atab kelingan. Xususan, Olim Sharafiddinov, V. Abdullayev, S. Erkinov, P. Ravshanov, N. Muhammad singari adabiyotshunoslar "Gul va Bulbul"<sup>26</sup> deyishgan bo'lsa, akademik B. Valixojayev hamda X. Rasulovlar esa "Bulbul va Gul"<sup>27</sup> deb nomlaganlar. Tadqiqotda ushbu ma'lumotlar haqidagi mulohazalar atroflicha tadqiq qilindi.

Mazkur dostonning barcha nusxalarini ko'zdan kechirganimizda uning xotima qismida ularning hammasi bir xil – "Gul va Bulbul" deb nomlangani ma'lum:

<sup>24</sup> Salohiy. Yusuf va Zulayxo. O'zRFA SHI qo'lyozmalar fondi. Inv. № 9691. – B. 221 (b-varaq).

<sup>25</sup> O'sha asar. – B. 222.

<sup>26</sup> Ўзбек адабиёти хрестоматияси (XV–XIX асрлар). – Тошкент: Фан, 1945. – Б. 124–129; Ўзбек адабиёти. 4 томлик. III том. – Тошкент: Ўзбекистон Давлат бадий адабиёт нашриёти, 1959. – Б. 341–349; Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи (2-китоб). – Тошкент: Ўқитувчи, 1964. – Б. 117–118; Эркинов С. Лutfий. – Тошкент, 1965. – Б. 121; Ravshanov P. Salohiddin Salohiy / Qashqadaryo haqiqati, 1982. 27 fevral; Ravshanov P. Qashqadaryo tarixi. – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 768; Ravshanov P. Qashqadaryo tarixi. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006; Мухаммад Носир. Насаф ва Кеш алломалари (IX–XX асрлар). – Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. – Б. 85.

<sup>27</sup> Валыхужаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 57–68; Расулов Холмид. Ўзбек эпик шеърларида халқчиллик. – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 148.

*Salohingg'a Iloho ayla rahmat,  
Kitobi Gul va Bulbul bo'ldi tammar*<sup>28</sup>.

Hatto ushbu asarning yagona qo'lyozmasi hisoblangan inv. 3402 raqamli manba xotimasining nomlanishida ham xuddi shunday "Guli Bulbul" deb nomlangan: "Xotimat-ul kitob Guli Bulbul"<sup>29</sup>.

Bizningcha, ushbu asar "Gul va Bulbul" deb nomlanishi maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Sababi asarda ishtirok etuvchi bosh obrazlar hisoblangan Gul – Haq timsoli, Bulbul esa Haqqa yetishishga intilgan solik timsolidir. Doimo oliy maqsad birinchi bo'lganligi bois ham doston "Gul va Bulbul" deb nomlangan.

"Gul va Bulbul" dostoni jami 927 bayt-u 1854 misra hamda 62 bobdan iborat (toshbosmada esa 732 bayt (1464 misra). Asar kompozitsiyasi shartli ravishda besh qismga bo'linadi:

1. Basmala, hamd, na't, munojot hamda Odam alayhissalom haqidagi fikrlar bayonoti.

2. Kirish.

3. Qushlar sayri bilan bog'liq asosiy sujet.

4. Lirik qahramon munojoti.

5. Xulosa.

Salohiyning ushbu dostonida g'azal janriga mansub yettita she'r mavjud bo'lib, ulardan bittasi 6 bayt, yana bittasi 9 bayt, qolgan 5 tasi 5 baytdan iboratdir. G'azallarning bittasi Gul tilidan, qolganlari esa Bulbul tilidan aytilgan. G'azallarning barchasida Bulbul va Gulning ishq yo'lidagi ruhiy kechinmalari tasvirlangan. Salohiy g'azallarining e'tiborli tomoni shundaki, unda adabiyot tarixida kamdan kam uchraydigan 6 baytli g'azallar ham keltirilgan. Qolaversa, g'azallarning barchasi o'ziga xos sarlavhalar bilan ziynatlangan. Jumladan, quyidagi 6 baytli g'azalining sarlavhasi quyidagicha nomlangan: "Gulning Sabodin Bulbulning firoqida aytib bergan g'azali"<sup>30</sup>.

Ushbu paragrafda sharq mumtoz adabiyotida qushlar sayri bilan bog'liq bir nechta asarlarning nomi keltirib o'tilgan. Mutasavvuf shoir – Salohiyning mazkur dostonidan muddaosi ishq majoziy vositasida ishq ilohiyni kuylash bo'lgan:

*Agar bo'lsa kishi ishq majozi,*

*Haqiqig'a majozi korisozi*<sup>31</sup>.

"Haq" deganda "Alloh" nazarda tutiladi. Tasavvufiy adabiyotda "haqiqat" yoki "ishqi haqiqat" atamaları orqali esa Allohga ishqni tushunish lozim. Dostonning syujeti majoziy bo'lgani kabi undagi timsollar ham majoziydir. Gul – Haqqa yetishish timsoli, Sabo – murshid, piri komil ramzi, Bulbul esa tariqat yo'liga kirishgan solikdir. Sabo rahnamoligida Bulbulning buyuk maqsadi

<sup>28</sup> Salohiy. Gul va Bulbul tasviri. O'zRFA SHI, Asosiy fond, toshbosma inv.577. – B. 48. (Ushbu manbadan olingan keyingi parchalarning sahifasi qavs ichiga berib boriladi)

<sup>29</sup> Salohiy. Gul va Bulbul. O'zRFA SHI, Asosiy fond, qo'lyozma inv. 3402. – B. 87 (b-varaq).

<sup>30</sup> O'sha asar. – B. 51-52.

<sup>31</sup> O'sha asar. – B. 87 (a varaq).

Gulga yetishish ekan, bu majoziy mazmun zahirida solikning Haq visoliga yetishish uchun chekkan azob-uqubatlarini anglash mumkin<sup>32</sup>.

Chin oshiq qachon g'amdān ozod bo'ladi, qachonki jism mavh bo'lib, ruh ozodlikka chiqqanda. Majoziy ishq haddi a'losiga yetgach, doirada faqat jism bilan ruh qoladi. Haqiqiy ishqqa yetish uchun esa endi jismdan ham voz kechish lozim. Majoziy ishq kamolga yetgani sari tilga olingan doirada nafsning hissasi kamayaveradi. Xuddi shunday hol Bulbulda ham sodir bo'ldi:

*Ki Gul ishqida Bulbul chekdi bir oh,  
Ki ul oh ila joni chiqdi nogoh. (46)*

"Hayot – Allohning o'z yaratilgariga ma'lum muddat berilgan bebaho ne'mati. O'lim esa tiriklikning yakuni, ammo ishq davom etaveradi. Chunki jonning chiqishi – jismninggina mahv bo'lishi, xolos. Yor yo'lida jismdan ham shu tariqa voz kechilgach, doirani endi to'liq tarzda ruh egallaydi, insonda ruhdan bo'lak hech narsa qolmaydi. Ya'ni odam butunlay ruhga aylanadi. Nafs va jismdan butkul qutulgan ruhgagina haqiqiy ishq, ya'ni chinakam vasl – Alloh bilan birlashish, boshqacha aytganda, vahdat nasib etishi mumkin. Tasavvufiy adabiyotdagi oshiqning oliy maqsadi – shu!"<sup>33</sup>. Haqiqatanda, adabiyotshunos Sultonali Olimning yuqoridagi fikrlari ushbu "Gul va Bulbul" asarining tugallanma qismi xulosasini hamda doston g'oyasini yaxlit ko'lamda aks ettirib bera olgan.

Bobning "Dostonning obrazlar tizimi" deb nomlangan ikkinchi paragrafi birinchi paragrafning mantiqiy davomi. Salohiyning "Gul va Bulbul" dostonida ham muallifning badiiy niyatiga mos tarzda bir qancha obrazlar qo'llangan. Ushbu dostonida jami 12 ta obraz mavjud bo'lib, ular asarda tutgan o'rniga ko'ra ikki guruhga ajratiladi: 1) asosiy obrazlar; 2) epizodik obrazlar.

Dostondagi asosiy obrazlar Gul, Bulbul hamda Sabo bo'lib, ular Salohiyning dostonidan avval ham ko'plab asarlarda bosh va epizodik obraz sifatida qo'llangan. Ushbu paragrafda bosh obrazlarning boshqa shu kabi majoziy dostonlarda qo'llanilganligi haqida so'z boradi. Xususan, turk ijodkori Fazliy, uyg'ur shoiri Xirqatiy, XVIII asr turkman shoiri Shebendelarning obrazlari haqidagi ma'lumotlar mavjud.

Salohiyning "Gul va Bulbul" dostoni tasavvufiy xarakterdagi asar bo'lganligi bois unda ishtirok etuvchi obrazlarning barchasida tasavvuf timsollari aks ettirilgan. Asarning yetakchi qahramoni – Gul. Chunki Bulbulning bosh maqsadi unga yetishishdan iborat. Gul – haqiqiy oshiqlar yori hisoblangan Alloh timsolidir.

Bulbulning o'z maqsadiga yetishishiga to'g'ri yo'l ko'rsatgan asosiy obrazlardan biri – bu Sabodir. U asarda "Bodi sabo" (tong shamoli) deb ataladi:

*Ki, ey Bodi sabo, xush kelding, ey yor,  
Senga fosh aylayin har navi asror. (3)*

Salohiyning estetik ideali – bu komil insondir. Ushbu idealni shoir pir obrazi orqali tasvirlab beradi.

<sup>32</sup> Olimov S. "Lison ut tayr" da ishq talqinlari / INFOLIB. №1, 2020.

<sup>33</sup> O'sha asar.

Bulbul haqiqiy oshiqlar, muridlar timsoli sifatida gavdalangan. "Murid – murod, ya'ni maqsadga intiluvchi odam; murod esa Alloh taoloning vasli. Muridning asosiy xislati niyozmandlik, ya'ni talabgor bo'lish, murshidi komil etagini tutib, aytganlariga so'zsiz rioya qilishdir"<sup>34</sup>.

Bulbulning Gul vasliga yetishishiga bir qadam qolganda unga tikon qarshilik qiladi:

*Tikonni dardig'a bechora Bulbul,  
Boshini oldi-yu, ovora bo'ldi. (7)*

Asarda tikan ham ramziy obraz bo'lib, u orqali jamiki sinovlar: azob-uqubatlar, qiyinchiliklar, dard-u g'amlar anglashilmoqda. Dastavval, Bulbulning muhabbatida bo'shliq bo'lganligi uchun ham bu sinovlarga chiday olmay, o'zga yurtni makon tutishga jazm etadi. Ammo oxirida ushbu sinovlar natijasida Alloh tomonidan siylanib, haqiqiy ishqqa yetishadi.

Dostondagi obrazlarning ikkinchi guruhi *epizodik obrazlar* hisoblangan sakkiz qush: Hudhud, Tovus, Qumri, Humo, So'fi, To'ti, Kabk (Kaklik) hamda Foxta kabilar tashkil etadi:

*Bor erdi Hudhud, Tovus, Qumri,  
Humo-yu So'fi-yu ham shoh To'ti.  
Yana Kabki xiromon, Foxta bor,  
Bu vodiya xushalhon murg' bisyor. (18)*

Bulbul ularning barchasi bilan suhbatlashadi, ammo ularning ichidan o'ziga sodiq do'st topa olmaydi. Aksincha, ular maqtanchoq, xudbin, manman, kibrli, tamagirlik kabi illatlarini o'z gaplari asosida namoyon etadi. Asarda ishtirok etuvchi obrazlarni shartli ravishda quyidagicha timsollar bilan ifodalash mumkin: Gul – Haqqa yetishish, Bulbul – Haq vasliga talabgor solik, Sabo – piri komil ramzidir. Shuningdek, Humoyun – himmatsiz shoh, Tovus – siyratiga emas, suvratiga zeb beruvchi, To'ti – har neni o'ylamay gapiruvchi nodon, Kabk – o'ziga bino qo'ygan, dimog'dor, Qumri – ikkiyuzlamachi shayx, Foxta – soxta oshiq, So'fiyo – riyokor so'fi, Hudhud – xudbin zohidlarning tipik vakili bo'lgan kimsalarning timsolidir.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi "*Poetik mahorat masalalari*" deb nomlanadi. Ushbu paragrafda Salohiy asarining XVIII asr adabiy tili, muallif, personaj nutqi haqida, shuningdek, dostonda qo'llanilgan badiiy san'atlar: iltizom, mukarrir, aqd, kalomi jomi', baroati istehlol, tajnis, iyhom hamda dostonning vazni va qofiyalari haqida so'z boradi.

Salohiy asardagi har bir obraz dunyoqarashi va ruhiyatini qahramonlar tili orqali ifodalab, turli tasvir vositalaridan, monolog hamda dialoglardan unumli foydalanadi. Mazkur dostonning vazni ham asar mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda hazaji musaddasi mahzuf // maqsur vaznida yozilgan. Doston uchun tanlangan ushbu vazn asarning g'oyaviy ruhiga nihoyatda mos tushgan. Uning ruknlar paradigmasi quyidagicha:

<sup>34</sup> Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – Б. 24.

*Taajjub qildim-u, turdum zamone,  
Banogah boshladi Bulbul fig'one. (5)*

V - - - | V - - - | V - -

